



O'ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO'LLAB-
QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xojiyev Rustam Xojimuratovich

Bank-moliya akademiyasi 2-kurs magistranti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a1

Annatsiya. Maqolada mamlakatimizning eksport salohiyati ko'rsatkichlari, eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi mohiyati, dastaklari, amalga oshirish tartiblari keltirib o'tilgan. Mavzuga oid olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilinib, eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: eksport, faoliyat, tizim, mablag', tashkilot, sug'urta, soliq, qarz, kredit, imtiyoz, korxonalar, rag'batlantirish, kafolat, xavf, import, savdo.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ЭКСПОРТНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хожиев Рустам Хожимуратович -

Магистрант 2 курса Банковско-финансовой Академии

Аннотация. В статье приведены показатели экспортного потенциала нашей страны, сущность системы финансового обеспечения экспортной деятельности, рычаги, процедуры реализации. Проанализированы научно-теоретические взгляды ученых на данную тему, сделаны выводы и предложения по совершенствованию системы финансового обеспечения экспортной деятельности.

Ключевые слова: экспорт, деятельность, система, финансирование, организация, страхование, налог, долг, кредит, льгота, предприятие, стимул, гарантия, риск, импорт, торговля.

IMPROVING THE FINANCIAL SUPPORT SYSTEM FOR EXPORT ACTIVITIES IN
UZBEKISTAN

Xhojiev Rustam Xhojimuratovich

2nd year of master degree of the Banking and Finance Academy

Annotation. The article cites indicators of the export potential of our country, the essence of the system of financial support for export activities, handles, implementation procedures. Scientific-theoretical views of scientists on the topic were analyzed and conclusions and proposals were made to improve the system of financial support for export activities.

Keywords: export, activity, System, funds, organization, insurance, tax, debt, credit, privilege, Enterprise, Incentive, guarantee, risk, import, trade.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish sharoitida mamlakatimizning eksport salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, jahon bozoriga raqobatdosh, yangi va qayta ishlangan mahsulotlarni eksportga yetkazib berish hajmlari va turlarini ko'paytirish, mahsulotlarni eksportga chiqarishning zamonaviy talablarga mos savdo-logistika infratuzilmasini jadal rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni Davlat das-

turining 112-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi [13].

Eksportchi korxonalarni moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash maqsadida Eksportni rag'batlantirish agentligi ham tashkil etilgan. Agentlik tomonidan bunday korxonalariga bir qator moliyaviy yordamlar ko'rsatiladi. Misol uchun transport xarajatlarining 50 foizgacha bo'lgan qismi agentlik tomonidan qoplab beriladi. Bundan tashqari xalqaro standart sertifikatlari joriy etilganda, ularning to'lovlari ham agentlik tomonidan qoplanadi. Xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalarda tadbirkorlar ishtirokini ta'minlashda ham xarajatlarning ma'lum bir qismi agentlik tomonidan to'lab beriladi.

Agentlik huzurida Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, bu jamg'arma tomonidan bir yil muddatda eksportchi korxonalar aylanma mablag'i uchun imtiyozli kreditlar ajratiladi. Mazkur amaliyot so'nggi yillarda o'z ijobiy samarasini berdi. Chunki eksportchi korxonalarda ko'p duch keladigan muammo – aylanma mablag' yetishmasligi. Shu nuqtayi nazardan bunday kreditlar eksportchi korxonalarga ijobiy ta'sir ko'rsatyapti.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. B.Levy: "...eksport kelajak uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Eksport ham kichik va o'rta korxonalar uchun muvaffaqiyat kalitidir, faqatgina buni qanday amalga oshirishni bilishi lozim. Boshqa ko'plab masalalarda bo'lgani kabi, hatto, iqtisodchilar orasida ham eksport afzalliklari to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Faol hukumatlar va nodavlat tashkilotlar kichik va o'rta korxonalar uchun eksportni qo'llab-quvvatlovchi turli xil dasturlarni amalga oshirsa, faoliyatlarida yuqori samaradorlikka erishishi mumkin", – deya keltiradi [1].

G.Tesfom, C.Lutz "...ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda batafsil statistik ma'lumotlarning yo'qligi eksportni qo'llab-quvvatlash xizmatlarining firmaning eksport ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashni juda qiyinlashtiradi. Bundan tashqari chalkashliklarni keltirib chiqaradigan asosiy omil eksportni qo'llab-quvvatlash faoliyati va haqiqiy savdo narxlaridagi o'zgarishlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri munosabatlarning yo'qligidir. Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun eksportni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash xizmatlarining samaradorligini baholash lozim" [2], – deb ta'kidlaganlar.

A.Ključnikov, B.Popesko kichik va o'rta korxonalarining eksportga yo'naltirilganligi korxonalarining raqobat qobiliyatining muhim atributidir. Shu nuqtayi nazardan eksportni moliyalashtirish sohasi kompaniyani boshqarishning juda muhim sohasiga aylanadi. Shu maqsadda tanlangan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning (jinsi, ta'lim darajasi va yoshi) ta'siriga nisbatan tadbirkorlarning eksport faoliyati va eksportni moliyalashtirishga tegishli yondashuvlarini aniqlash va amalga oshirishdan iboratdir [3].

Janubiy koreyalik olimlar Y.Shin, J.Hur Janubiy Koreyadagi ishlab chiqarish firmalarining turli eksport faoliyatiga moliyaviy barqarorlikning ta'sirini o'rgangan. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat bo'lgan. Birinchidan, eksport boshlashdan avval moliyaviy barqarorlikka ega bo'lish lozim. Ikkinchidan, ma'lum bir yilda yaxshi moliyaviy barqarorlik firmaning keyingi yilda yangi eksportchi bo'lish ehtimolini oshiradi. Uchinchi-

dan, yaxshi moliyaviy barqarorlik eksportni davom ettirish xarajatlarini emas, balki eksport bozoriga kirish xarajatlarini qoplash bilan bog'liq. Ularning natijalari moliyaviy barqarorlik ishlab chiqarish sohalarida eksport firmalarining sonini ko'paytirishda o'z-o'zini tanlash rolini o'ynaydi[4].

S.Purwanto tadqiqotlarida eksport yordami iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa-da, ba'zi empirik tadqiqotlari ahamiyatsiz natijalarni ko'rsatgan. Buning sababi eksport firmalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri va hech qanday shartli munosabatlarni nazarda tutmaganligi ya'ni yetarlicha molliyalashtirilmagani sabab bo'lgan [5].

O.V.Nikulina, E.S.Manuylova eksport qiluvchi va import qiluvchiga turli muddatdagi kreditlarni berish orqali, innovatsion kredit sifatida eksport kreditlari orqali eksport faoliyatidagi to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish o'rnini bosishi mumkinligini tushuntirib berganlar [6].

M.Farzaliyev, N.Hajiyev eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda xalqaro (import va eksport) paritet narxlarini hisoblash metodologiyasidan foydalanishni taklif etadilar va uni quyidagi to'rt bosqichdan iborat deb ko'rsatganlar:

1. Mahsulotning jahon narxini hisoblash (tayyor mahsulotlar va tijorat ishlab chiqarish vositalari uchun).

2. Mahsulotning jahon narxini milliy valyutaga konvertatsiya qilish kursini aniqlash.

3. Xalqaro o'lchov birliklaridan mahalliy o'lchov birliklariga o'tish hisobiga mahsulotning fizik hajmini hisoblash.

4. Korxonada maxsulotining import (eksport) qiymatini hisoblash [7].

K.N.Ramazanovna, K.K.Muzaffarovna eksport prognozi parametrlarining bajarilishini doimiy monitoring qilish, shuningdek, kelgusi yillar uchun eksport prognozini shakllantirishni tashkil etish; mintaqaviy va tarmoq eksport salohiyatining o'sishi va safarbarligiga to'sqinlik qiladigan dolzarb va tizimli muammolarni aniqlash; beqaror tashqi muhit sharoitida mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, xalqaro tahdid va xavflarning yangi turlari (masalan, koronavirus pandemiyasi)ni aniqlash; eksport faoliyatini amalga oshirishda aniqlangan muammolarni o'rganish va zarur hollarda ularni joyida bartaraf etish choralarini ko'rish; eksport salohiyatini yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shu jumladan, amaliy, qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish[8] kerakligini keltirib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda sohaga oid ma'lumotlarning analitik tahlili, qiyosiy tahlil, abstrakt tahlillardan foydalangan holda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga doir yo'nalishlarda tadqiqot olib borildi. Tadqiqot ishimizda statistik tahlil yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammolar o'rganilib, uning yechimi sifatida tegishli tartibda xulosa va takliflar, asosiy yo'nalishlar kelitirib o'tildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonning eksport ko'rsatkichlari misol qilib olindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish, mamlakatning dunyoning bir qator rivojlangan davlatlaridan biri sifatida o'rin egallashga qaratilgandir. Tadqiqotlar natijasida aytish mumkinki, 2022-yilning yanvar oyi holati bo'yicha tovarlar eksporti bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81 taga ko'paygan bo'lib, ularning bugungi kundagi soni 5400 taga yetdi.

2021-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2020-yilga nisbatan 16 %ga o'sib, 42,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Eksport hajmi 10 %ga oshib, 16,6 mlrd. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 20,4 %ga o'sib, 25,46 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Sanoat tovarlari eksporti oltin eksportidan o'zib ketdi.

2021-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2020-yilga nisbatan 16 %ga ko'paydi va 42,1 mlrd. dollarni tashkil etdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda eksport hajmi 10 %ga ko'payib, 16,611 mlrd. dollarga yetdi. Import hajmi esa 20,4 %ga ko'paydi va 25,461 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasining manfiy tashqi savdo balansi 8,85 mlrd. dollarni tashkil etdi – o'tgan yili ushbu ko'rsatkich 6 mlrd. dollar bo'lgan edi. 2021-yilda O'zbekistonda eksportning asosiy qismini sanoat tovarlari (umumiy eksportning 26,1 %i), oltin (24,7 %), xizmatlar (15,3 %) va oziq-ovqat tovarlari (8,3 %) tashkil etdi. O'z o'rnida, 2021-yilda sanoat tovarlari (ularga to'qimachilik mahsulotlari, rangli metallar, temir va po'lat kiradi) eksporti 2020-yilgi eksport hajmiga nisbatan 7 %ga o'sgan. 2020-yilda eksport qilingan oltin hajmi esa 2021-yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan 13,7 % ko'proq bo'lgan. Shuningdek, mashinalar eksportining ulushi umumiy eksport hajmida 1,5 marotabaga ko'payib, 4,2 %ga yetgan.

2021-yil davomida O'zbekistonda importning asosiy qismini mashinalar va asbob-uskuna-

lar importi (32,4 %, 2020-yilga qaraganda 5,2%ga kamroq), sanoat tovarlari (18,5 %), kimyoviy vositalar (14,3 %), oziq-ovqat tovarlari (9,9 %) va xizmatlar (6,8 %) tashkil etdi [9].

So'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etilib, eksport hajmini oshirish uchun eksport qiluvchi korxonalariga moliyaviy ko'mak berish mexanizmlari yaratildi.

Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida:

- eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, noxomashyo eksport hajmi, milliy eksport qiluvchilar va ularning mahsulotlarini sotib oladigan mamlakatlar sonini oshirishga ko'maklashish;

- ko'rgazma stendlarini tashkil etish va respublika korxonalarining xalqaro savdo yarmarkalari, taqdimotlari va reklama kampaniyalarida ishtirok etishi, shu jumladan, an'anaviy milliy mahsulotlar va brendlarni potensial bozorlarda ilgari surishni moliyalashtirish;

- milliy mahsulotlarni xorijiy vakolatli organlar tomonidan rasmiylashtirilishi orqali standartlashtirish va sertifikatlashtirishning ham respublikadagi, ham xorijdagi xalqaro tizimlarini joriy etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsadida eksport qiluvchi korxonalariga maqsadli moliyaviy yordam ko'rsatish;

- moliyaviy qo'llab-quvvatlash va milliy eksportni sug'urtalashning zamonaviy mexanizmlarini muvaffaqiyatli qo'llagan xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olib, shu jumladan, xalqaro moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda eksportoldi va eksportni moliyalashtirish, eksport kreditlari va tavakkalchiligini sug'urtalash mexanizmlarini joriy etish;

- savdoni moliyalashtirish uchun xalqaro va xorijiy moliya institutlarining qarzlari va imtiyozli kreditlarini jalb qilish;

- boshqa kompleks moliyaviy va konsalting xizmatlarini ko'rsatish tizimlari keltirib o'tildi.

Mamlakatimiz eksport salohiyatini o'rganishlar natijasida aytishimiz mumkinki, O'zbekiston eksportining hajmi yildan yilga o'sishni ko'rsatmoqda. Masalan, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 2630,9 ming so'mga yoki 15,8 %ga o'sgan. 1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilsak, faqatgina Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022-yilda 2021-yilga nisbatan salbiy saldoni ko'rish mumkin, ammo qolgan barcha viloyatlarda o'sishni kuzatishimiz mumkin.

Viloyatlar kesimida eksportning hajmi [10]

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	13990,7	17458,7	15102,3	16662,8	19293,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	457,8	431,1	362,7	416,2	352,8
Andijon viloyati	357	499,6	584,1	978,9	1246,5
Buxoro viloyati	187,2	265,8	231,1	312,1	306,5
Jizzax viloyati	76,2	120,3	124,1	195,5	199,7
Qashqadaryo viloyati	270,8	366,1	195,4	270	301,1
Navoiy viloyati	350,2	362,9	426,5	508,6	581
Namangan viloyati	247,4	356	380,5	496,2	584,4
Samarqand viloyati	315,6	398,5	335,2	531,7	636,6
Surxondaryo viloyati	191,7	241	213,5	235,2	227,4
Sirdaryo viloyati	119,1	131,8	179,7	233,9	327,6
Toshkent viloyati	1535,4	1781,6	1786,1	2011,1	2042,4
Farg'ona viloyati	484,3	574,4	556,1	801,3	829,3
Xorazm viloyati	102,1	146,9	169,6	231,2	247
Toshkent shahri	2903,8	3187,6	2923,2	3847,4	4669,3

O'zbekiston eksportining o'sish sur'atini ko'radigan bo'lsak, 2015-yildan 2019-yilgacha doimiy o'sishni kuzatishimiz mumkin. Ammo 2020-yilda pandemiya sababli eksportning o'sish

ko'rsatkichi 2019-yilga nisbatan 38,3 %ga tushgan, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 23,8 %ga o'sgan va hozirga kelib ko'rsatkich 115,8 %ni tashkil etmoqda (1-rasm).



1-rasm. Eksportning o'sish sur'ati [11]

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va eksportga yo'naltirilgan korxonalarini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va vositalar majmuyidir. Ushbu tizim quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- eksport kreditlari va kafolatlar;
- eksport kreditlari: eksport qiluvchilar uchun imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni ta-

minlash, bu ularga chet ellik xaridorlarga kechiktirilgan to'lovlarni taqdim etish imkonini beradi;


- eksport kreditlarining kafolatlari: chet ellik xaridorlarning nomuvofiqlik xavfini kamaytirish maqsadida eksport qiluvchilarga yoki moliya institutlariga beriladigan davlat kafolatlari;
- eksport xavfini sug'urtalash:
- kredit xavfini sug'urtalash: chet ellik xaridorlarning to'lovga layoqatsizligi yoki defolt holatida sug'urta qilish;

– siyosiy xavflarni sug'urtalash: import qiluvchi mamlakatda shartnomaning bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan siyosiy vaziyatning o'zgarishi bilan bog'liq xavflardan himoya qilish.

Shu bilan birga, eksportni qo'llab-quvvatlashda moliyaviy maslahat va yordam ko'rsatishni joriy etish lozim va uni quyidagicha o'rgansak, maqsadga muvofiq bo'ladi:

moliyaviy rejalashtirish, ya'ni eksportdan maksimal foyda olish uchun moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha maslahat va yordam ko'rsatish;

xatarlarni baholash, ya'ni xalqaro savdo bilan bog'liq xavflarni tahlil qilish va baholashda yordam berish va ularni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish lozim.



2-rasm. Mamlakatning umumiy tovarlar eksporti [12]

Mamlakatning umumiy tovarlar eksporti 2-rasmda aks ettirilganligidan ko'rishimiz mumkinki, umumiy tovarlar eksporti mo'tadil o'sib bormoqda. Demak, mamlakatimizning eksport salohiyati mavjud va tadbirkorlarga ko'mak berib kelinmoqda.

Kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirish uchun maxsus dasturlar va imtiyozli shartlar, ularning eksport faoliyatidagi ishtirokini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish kerak va bozorni o'rganish, ya'ni marketing tadqiqotlarini olib borish lozim. Tashqi bozorlar, iste'molchilarning afzalliklari va raqobat muhiti to'g'risida ma'lumot berish, eksportga yo'naltirilgan kompaniyalar uchun o'quv dasturlari va resurslarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy va xorijiy kompaniyalar o'rtasida aloqalarni o'rnatishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, yangi bozorlarga kirishni osonlashtirish uchun xalqaro biznes sherikliklarini shakllantirishga ko'maklashish eksportni rivojlantirishga yordam beradi.

Mamlakatda moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish yo'li orqali xalqaro moliyaviy operatsiyalar uchun infratuzilmani, shu jumladan, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishga imkon beriladi. Soliq organlarida imtiyoz va chegirmalar eksportni qo'llab-quvvatlashda eng asosiy dastakdir, bu esa eksportda faol ishtirok etadigan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari

berish tartibini ham takomillashtirish masalasini qo'yadi.

Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi kompaniyalar uchun eksport imkoniyatlarini rivojlantirish, iqtisodiy o'sishga yordam beradi va mamlakatning jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlaydi.

Xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va moliya kompaniyalaridan Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va mahalliy tijorat banklariga eksportoldi moliyalashtirish uchun 200 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar jalb etilishi ta'minlab beriladi [10].

Birgina charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini misol qilib oladigan bo'lsak, boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, xomashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini diversifikatsiyalash va eksport qilinadigan tovarlarni kengaytirish asosida ularning jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-mayda qabul qilingan "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3693-sonli qarori bugungi kunda o'z ahamiyatli jihatlari bilan ajralib turadi.

Mazkur qarorga ko'ra, «O'zcharmsanoat» uyushmasi a'zolari – tashkilotlarga 2023-yil 1-yanvarga qadar muddatda quyidagi ko'rinishdagi soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar berildi:

- foyda solig'i va mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etildi;

- belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'y-xatlar bo'yicha import qilinadigan tovarlardan soliq olinmaydigan bo'ldi.

Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasida eksport qiluvchi korxonalarining eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun oxirgi 12 oy mobaynida ular tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmidan kelib chiqqan holda 2 yil muddatgacha quyidagicha miqdorda moliyaviy resurslar ajratilishi belgilangan:

- eksport hajmi 1 million AQSh dollaridan 2 million AQSh dollarigacha bo'lganda – 1 million AQSh dollarigacha;

- eksport hajmi 2 million AQSh dollaridan 4 million AQSh dollarigacha bo'lganda – 2 million AQSh dollarigacha;

- eksport hajmi 4 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 3 million AQSh dollarigacha moliyaviy resurslar ajratilishi ko'zda tutilgan. Bunda moliyaviy resurslar yillik 4 foiz stavkadan (shundan 2 foizi bank marjasi) oshmagan holda taqdim etiladi.

Ushbu berilgan imtiyozlar va preferensiyalar natijasida jahon bozoridagi konyunkturaning sezilarli o'zgarishlariga qaramay, mamlakatimizda oxirgi yillar ichida mahsulotlar eksporti

o'sganligini, uning tuzilmasini diversifikatsiya qilish ta'minlanib, eksport umumiy hajmida tayyor mahsulotlarning ulushi ortayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish masalalarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini rivojlantirish orqali eksportoldi va eksportni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish;

- turli xil xizmat turlari eksportini tashkil qilish, ularni amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishni jadallashtirish;

- tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish;

- yuqori texnologiyali uskunalarni, yangi turdagi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi hamda o'z mahsulotlarini eksport qiluvchi mahalliy xo'jalik yurituvchi subyektlarga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalarni ko'zda tutish;

- eksport operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini amalga oshiruvchi korxonalariga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

2. Levy B. et al. *Supporting the export activities of small and medium enterprise (SME)*. // *Fulfilling the export potential of small and medium firms*. 1999. C. 1-30.

3. Tesfom G., Lutz C. *Evaluating the effectiveness of export support services in developing countries: a customer (user) perspective*. // *International Journal of Emerging Markets*. 2008. T. 3. №. 4. C. 364-377.

4. Ključnikov A., Popesko B. *Export and its financing in the SME segment. Case study from Slovakia*. // *Journal of Competitiveness*. 2017.

5. Shin Y., Hur J. *Effects of Financial Soundness on Export Activities: Evidence from Firm-Level Data of Korea*. // *Global Economic Review*. 2022. T. 51. №. 3. C. 175-194.

6. Purwanto S. et al. *Financial assistance, marketing assistance and export commitment to improve export performance*. // *European Research Studies*. 2018. T. 21. №. 4. C. 69-91.

7. Nikulina O.V., Manuylova E.S. *Directions of Improving the Financial Support of Export Activity of Innovative Companies in Russia and Abroad*. // *Вестник Волгоградского Государственного Университета. Seriiã 3, Èkonomika, Èkologiiã*. 2015. №. 3 (32).

8. Farzaliyev M., Hajiyev N. *Directions of improvement of the financial mechanism for state support to and promotion of export of foods in Azerbaijan*. // *Economic and Social Development (Book of Proceedings Vol. 4/4), 55th International Scientific Conference on Economic and Social*. 2020. C. 588.

9. Ramazanovna K.N., Muzaffarovna K.K. *Issues of increasing the effectiveness of the mechanism of financial support for the export potential of the country*. // *湖南大学学报 (自然科学版)*. 2022. T. 49. №. 11.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

11. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2360/table-data>

12. <https://siat.stat.uz/reports-filed/1124/line-data>

13. <https://siat.stat.uz/reports-filed/1148/line-data>